

BANKLARNING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISHINING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Yo‘ldosheva Munavvarxon Burxoniddin qizi
Qo‘qon Davlat Universiteti Gumanitar va tillar fakulteti
Tarix ta‘lim yo‘nalishi IV- bosqich talabasi
Olimov Jahongir Bo‘riboevich
Qo‘qon Davlat Universiteti katta o‘qituvchisi, t.f.f.d.,
olimovjahongir1982@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda banklarning tashkil etilishi va rivojlanishining ilmiy nazariy asoslari va infratuzilmaviy xususiyatlari hamda istiqbolli yo‘nalishlari yoritib berilgan.. O‘zbekistonda bank tizimining rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uning istiqbollari ilmiy asosda ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan,

Kalit so‘z va iboralar: Bank, xalqaro moliya, raqamli iqtisod, kredit, chek-depozit emissiyasi, ichki va tashqi pul o‘tkazmalari, ipoteka, online bank.

Аннотация: В данной статье освещены научно-теоретические основы создания и развития банков в Узбекистане, их инфраструктурные особенности и перспективные направления. Работа направлена на анализ текущего состояния развития банковской системы Узбекистана, выявление существующих проблем, а также разработку научно обоснованных практических рекомендаций по её совершенствованию и определению перспектив развития.

Ключевые слова и фразы: Банк, международные финансы, цифровая экономика, кредит, чеково-депозитная эмиссия, внутренние и внешние денежные переводы, ипотека, онлайн-банкинг.

KIRISH. Bank – pul mablag‘larini yig‘ish, saqlash, kreditlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda turli vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi moliyaviy muassasa hisoblanadi.

Dastlabki banklarning qachon va qanday paydo bo‘lganligini aniq belgilash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning sababi shundaki, hozirgi davr banklari o‘z faoliyatining ko‘lamiga ko‘ra turli xil operatsiyalarni amalga oshiruvchi universal moliyaviy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning yirik banklari o‘z mijozlariga yuzlab turdagi xizmatlarni taqdim etadi. Ushbu operatsiya va xizmatlarning barchasi bir vaqtning o‘zida va bir hududda shakllanmaganligi sababli, bank ishining boshlang‘ich nuqtasini aniqlash chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni va ular asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarishni talab etadi.

Tarixda dastlab yuzaga kelgan bank sifatida Angliya banki e‘tirof etilib, u 1694-yilda aksiyadorlik banki sifatida tashkil etilgan. Mazkur bank aksiyador-emissiya banki bo‘lib, unga davlat tomonidan banknotlar chiqarish huquqi berilgan[1].

Keyinchalik sanoatning rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil etila boshladi[2]. Banklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va ehtiyojlarning ortishi, savdo kapitali aylanishining tezlashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Natural xo‘jalik munosabatlarining tugashi hamda savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi pul shaklidagi hisob-kitoblarning kengayishiga, kredit munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Ishlab chiqarishning kengayishi esa yollanma mehnatning jalb qilinishiga olib keldi. Yollanma mehnatga haq to‘lashning pul shaklida amalga oshirilishi doimiy pul aylanishini yuzaga keltirdi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Pul muomalasining kengayishi va murakkablashuvi uni tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada banklar pul mablag‘larini yig‘ish va ularni taqsimlash orqali ssuda kapitali harakatini boshqaruvchi muhim moliyaviy institutga aylandi. Ssuda kapitalistidan farqli ravishda, bankir tadbirkor sifatida faoliyat

yuritadi. Shu bois ko‘plab iqtisodchilar bank mohiyatini aynan kredit (ssuda) operatsiyalari bilan bog‘liq holda talqin etadilar.

Bank tushunchasi va uning nazariy jihatlarini o‘rganish bo‘yicha bir necha asrlar davomida iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Rossiya Moliya akademiyasi professori O.I. Lavrushinning fikriga ko‘ra, banklar iqtisodiyotning o‘ziga xos “qon tomiri” bo‘lib, ularsiz zamonaviy xo‘jalik mexanizmini tasavvur etib bo‘lmaydi. Mazkur tizim orqali turli xo‘jalik subyektlari, davlat korxonalari, xorijiy investorlar va pul resurslari o‘zaro harakatda bo‘ladi.

Shunday qilib, bank faoliyati iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish va ularni ssuda kapitali sifatida taqsimlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bank o‘z faoliyati davomida daromad oladi, bu daromad asosan jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha to‘lanadigan foiz bilan joylashtirilgan mablag‘lardan olinadigan foiz o‘rtasidagi farq, ya’ni foiz marjasi hisobiga shakllanadi [3].

Banklar bajaradigan funksiyalar ularning iqtisodiyotdagi vazifalariga bog‘liq holda turlicha namoyon bo‘ladi. Bank tizimi miqyosida qaraladigan bo‘lsa, banklar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: vaqtincha bo‘sh mablag‘larni jalb qilish va ularni kapitalga aylantirish; kredit munosabatlarida vositachilik qilish; to‘lov va hisob-kitob jarayonlarida vositachilik qilish; muomalaga kredit vositalarini chiqarish.

Iqtisodiyotda vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni jalb qilish va ularni kapitalga aylantirish banklarning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu funksiyaning amalga oshirilishi natijasida, bir tomondan, yuridik va jismoniy shaxslar jalb etilgan mablag‘lari bo‘yicha muayyan daromadga ega bo‘ladilar, ikkinchi tomondan esa mazkur mablag‘lar banklarning kreditlash salohiyatini shakllantiradi. Aynan shu resurslar asosida banklar ssuda operatsiyalarini amalga oshiradilar.

Iqtisodiy rivojlanish sur‘atlarining oshishi bank kreditidan foydalanish ko‘lamini kengaytiradi. Kredit nafaqat kundalik faoliyat bilan bog‘liq ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining qisqa muddatli ehtiyojlarini qoplash, balki

uzoq muddatli investitsion ehtiyojlarni moliyalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi[4].

To‘lovlarda vositachilik funksiyasi doirasida banklar o‘z mijozlarining topshiriqlariga asosan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiradi: hisobvaraqlarga mablag‘larni qabul qiladi, pul tushumlari hisobini yuritadi hamda mijozlarga pul mablag‘larini berishni ta‘minlaydi.

Hisob-kitoblarning banklar orqali amalga oshirilishi muomala xarajatlarining kamayishiga xizmat qiladi. Mijozlar mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham o‘z mablag‘larini bank orqali bir hisobvaraqdan boshqasiga tez va ishonchli tarzda o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Muomalaga kredit vositalarini chiqarish banklarning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo‘sh mablag‘lar va jamg‘armalar bilangina cheklanmay, balki kredit asosida chek-depozit emissiyasi orqali ham shakllanishi mumkin. Agar bank tomonidan berilayotgan kredit hajmi mavjud jamg‘armalardan ortib ketsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, kredit mexanizmi orqali muomalaga naqd pul shaklidagi banknotlar ham chiqariladi. Banklar kredit berish va depozitlar yaratish orqali to‘laqonli pullar o‘rnini bosuvchi kredit vositalarini shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan funksiyalardan ko‘rinib turibdiki, bank iqtisodiy subyekt sifatida xo‘jalik yurituvchi tashkilot hisoblanadi. Banklar aksiyadorlik jamiyatlari singari turli shaxslarning vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jalb qiladi va ularni samarali boshqaradi. Shu bilan birga, banklar moliyaviy xizmatlarni taklif etuvchi tijorat tashkiloti sifatida ham faoliyat yuritadi, ya‘ni ular o‘z xizmatlarini sotadi va foyda olishga intiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida nisbatan past foiz stavkalarida depozitlarni jalb qilib, ularni yuqoriroq foiz stavkalarida kredit sifatida

joylashtirish orqali daromad oladi. Shu jihatdan ular tijorat korxonalari sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Har qanday xo‘jalik yurituvchi subyekt singari banklar ham mustaqil iqtisodiy birlik bo‘lib, yuridik shaxs maqomiga ega. Shu bilan birga, bank faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaga ega bo‘lishi shart. Banklar moliyaviy resurslarni jalb qilish, ularni taqsimlash va qayta taqsimlash orqali iqtisodiyotda tovar-pul munosabatlarining samarali amal qilishiga xizmat qiladi.

Bank tizimi tashkiliy tuzilma sifatida yirik tizim bo‘lib, mamlakatning umumiy iqtisodiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu esa banklar faoliyati va rivojlanishini moddiy va nomoddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish, muomala va iste‘mol jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni taqozo etadi. Amaliy faoliyatida banklar xo‘jalik hayotini tartibga solish mexanizmi bilan chambarchas aloqada bo‘ladi.

Shu bilan birga, banklar soliq tizimi, narx (baho) tizimi, daromad siyosati hamda tashqi iqtisodiy faoliyat shartlari bilan ham uzviy bog‘liq holda faoliyat yuritadi.

Hozirgi kunda bank tizimining ko‘p pog‘onali tuzilishga ega bo‘lishi uning tashkiliy xususiyatlari bilan belgilanadi. Biroq rivojlangan mamlakatlar amaliyotida asosan bir pog‘onali yoki ikki pog‘onali bank tizimlari uchraydi.

Bir pog‘onali bank tizimi odatda mamlakatda yagona markaziy bank mavjud bo‘lmagan yoki butun bank tizimi bitta markaziy bankdan iborat bo‘lgan sharoitdagina amal qiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda esa ikki pog‘onali bank tizimi ustuvor hisoblanadi. Bunda birinchi (yuqori) pog‘onani Markaziy bank tashkil etsa, ikkinchi (quyi) pog‘onani tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari tashkil etadi.

Zamonaviy jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan model aynan ikki pog‘onali bank tizimi bo‘lib, u davlat Markaziy banki va tijorat banklari tarmog‘idan iborat.

Markaziy bank bank tizimi mavjud bo‘lgan barcha davlatlarda pul-kredit tizimining asosini tashkil etadi. Uning moliya bozoridagi o‘rni mamlakatda bozor

munosabatlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Mazkur holat o‘z navbatida ikki pog‘onali bank tizimining shakllanishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi, chunki ushbu tizimning yuqori pog‘onasida aynan Markaziy bank faoliyat yuritadi.

Ikki pog‘onali bank tizimining zarurati bozor munosabatlarining ichki qarama-qarshiliklaridan kelib chiqadi. Bir tomondan, u xususiy moliyaviy resurslardan erkin foydalanish huquqini taqozo etadi, bu esa quyi pog‘onadagi tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, mazkur munosabatlarni muayyan darajada tartibga solish, nazorat qilish va maqsadli yo‘naltirish zarurati mavjud bo‘lib, bu vazifa maxsus institut sifatida Markaziy bank zimmasiga yuklatiladi[5].

Tarixan ilk Markaziy bank 1656-yilda Shvetsiyada tashkil etilgan bo‘lib, undan so‘ng 1694-yilda Angliyada Markaziy bank vujudga kelgan.

Kredit-moliya tizimining barqarorligini ta‘minlash, uning alohida bo‘g‘inlari, avvalo tijorat banklari faoliyatining barqaror ishlashini kafolatlash Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Markaziy bank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish funksiyalarini ham bajaradi.

Turli mamlakatlarda Markaziy banklarga yuklatilgan funksiyalar ma‘lum darajada farq qilishi mumkin. Biroq, u har doim davlat va bank institutining uyg‘unlashgan shakli sifatida namoyon bo‘lib, iqtisodiyotni tartibga soluvchi muhim organ sifatida faoliyat yuritadi.

Markaziy banklar tomonidan bajariladigan operatsiyalar quyidagi asosiy to‘rt guruhga ajratiladi:

1. banknotlarning monopol emissiyasini amalga oshirish;
2. Markaziy bank – “banklar banki” funksiyasini bajarishi;
3. Markaziy bank – hukumat bankiri sifatida faoliyat yuritishi;
4. pul-kredit munosabatlarini tartibga solish hamda bank nazoratini amalga oshirish.

Markaziy banklarga davlat vakili sifatida qonuniy ravishda banknotlarni monopol tarzda emissiya qilish huquqi berilgan, ya'ni umumdavlat kredit pullarini chiqarish vazifasi yuklatilgan. Ta'kidlash joizki, sanoati rivojlangan mamlakatlarda banknotlar pul massasining nisbatan kichik qismini tashkil etadi, shu bois Markaziy bankning emissiya funksiyasining ahamiyati qisman pasaygan. Biroq banknotlar chiqarish funksiyasi mamlakat pul zahiralarini shakllantirish, naqd pul muomalasini ta'minlash hamda kredit tizimi likvidligini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, naqd pul ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda bu funktsiyaning roli yanada kattadir.

Har qanday davlatda Markaziy bank hukumat banki hisoblanadi va uning maqomi tegishli qonunlar bilan belgilanadi. U hukumatning rasmiy pul-kredit instituti sifatida faoliyat yuritadi. Markaziy bankning faoliyati foyda olishga qaratilmagan bo'lib, uning asosiy maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hamda shu orqali mamlakatda narxlar barqarorligini saqlashdan iborat[6].

Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirish tartiblariga muvofiq, tijorat banklari majburiy rezervlarni Markaziy bankda saqlaydilar. Markaziy bank pul-kredit siyosatini yurituvchi asosiy organ bo'lib, u valyuta kursi, foiz stavkalari hamda bank tizimining umumiy likvidlik darajasiga ta'sir ko'rsatish orqali butun iqtisodiyotga ta'sir o'tkazadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishdan asosiy maqsad iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish va inflyatsiyani nazorat qilishdan iborat.

Markaziy bank, odatda, o'z ustaviga muvofiq pul muomalasi va milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi. Shu bois u o'z siyosatini boshqa davlat organlarining iqtisodiy siyosati bilan muvofiqlashtirishga intiladi. Pul-kredit siyosati umumiy iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan Markaziy bankning mustaqillik darajasi bilan belgilanadi.

Ikki pog'onali bank tizimining quyi pog'onasini tijorat banklari tashkil etadi. Tijorat banklari turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Xususan, mulkchilik shakliga

ko‘ra ular quyidagi turlarga bo‘linadi: davlat banklari, aksiyadorlik banklari, kooperativ banklar, xususiy banklar, mintaqaviy banklar hamda aralash mulkchilikka asoslangan banklar.

Aksiyadorlik banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritishi mumkin. Aksiyadorlar tarkibiga kirish bank aksiyalarini sotib olish orqali amalga oshiriladi. Yuridik va jismoniy shaxslar bank aksiyalarini xarid qilish orqali uning aksiyadoriga aylanishlari mumkin.

Bajaradigan operatsiyalariga ko‘ra tijorat banklari universal va maxsus banklarga bo‘linadi.

Universal banklar turli xil bank operatsiyalarini bajarish hamda keng ko‘lamdagi moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish xususiyatiga ega. Maxsus banklar esa muayyan yo‘nalishlarga ixtisoslashgan bo‘lib, o‘z faoliyatini aynan shu sohalarda yuqori samaradorlikka erishishga qaratadi. Bunday banklarga tarmoqlarga xizmat ko‘rsatuvchi banklar, eksport-import operatsiyalariga ixtisoslashgan banklar, investitsiya banklari hamda ipoteka (zaminiiy) banklar kiradi.

Bank tizimining institutsional tuzilishi o‘z ichiga bank faoliyati bilan bevosita va bilvosita shug‘ullanuvchi subyektlar majmuasini qamrab oladi. Bu tuzilma banklar va ularga aloqador tashkilotlarning tuzilishi, vazifalari, funksiyalari hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ifodalaydi.

Tashkiliy tuzilma bo‘yicha guruhlash esa muayyan davlatda faoliyat yuritayotgan kredit munosabatlari shakllari, kredit turlari va ularda ishtirok etuvchi banklarning turlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur tuzilma kredit shakllari hamda banklarning ishtirok etish xususiyatlariga qarab shakllantiriladi.

Bank resurslari o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lardan tashkil topadi. O‘z mablag‘lari, odatda, bank resurslarining nisbatan kichik qismini tashkil etadi. Asosiy ulush esa depozitlar, ya’ni bank mijozlariga tegishli omonatlardan iborat bo‘ladi.

Banklarning kreditlash funksiyasi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, banklar korxonalarni kreditlash jarayonida ularning

moliyaviy holatini xolis baholash kabi muhim vazifani bajaradi. Tijorat banklari o‘z faoliyati orqali bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda samarali faoliyat yurita oladigan subyektlarni aniqlaydi va ularni o‘z vaqtida moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Shu orqali ular mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Tijorat banklarining muhim funksiyalaridan yana biri hisob-kitob va to‘lovlarni amalga oshirishdir. Hozirgi kunda korxonalar va xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi hisob-kitoblarning asosiy qismi pul o‘tkazmalari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda tijorat banklari vositachi sifatida to‘lovlarning uzluksiz va ishonchli bajarilishini ta’minlaydi[7].

Respublika iqtisodiyotiga kirib kelayotgan lizing munosabatlari ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash hamda modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Lizing xizmatlari uchun to‘lanadigan foiz stavkalari bilan bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni inobatga olgan holda, mazkur xizmatlarni tijorat banklari tomonidan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki banklar lizing operatsiyalarini bevosita amalga oshirish orqali xizmat narxini pasaytirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi [8].

XULOSA

Demak, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan bank siyosati, qonunchilik bazasi, pul moliy rejimning soddalashtirilishi, xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi Shuningdek, tijorat banklari faoliyatiga hozirgi kunda trast (ishonchli boshqaruv) xizmatlari ham kirib kelmoqda. Ushbu xizmatlar respublika bank amaliyoti uchun nisbatan yangi bo‘lsa-da, ularni joriy etish va rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Tashmatov Sh.H., Sattullayev X.S., Allaberganov Z.G. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – B. 99.
2. Sagdillayeva Z., Choriyev I., Mahmudov A., Yuldasheva U. Iqtisodiy tahlil: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – B. 12.

3. Djumonov D., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – B. 204.
4. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: 2020. – B. 88.
5. Mamadiyarov Z., Maxmudova M., Kurbonbekova M. Bank ishi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – B. 60.
6. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – B. 32.
7. Karaliyev T.M., Sayfiddinov I.F. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorati. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – B. 98.
8. Karaliyev T.M. va boshqalar. Tijorat banklari faoliyati tahlili. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2013. – B. 72.